

## O'ZBEK TILIDA SHEVALARNING HUDUDIY FARQLANISHI

Jumayeva Nargiza Ulug'Bek qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19911988>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek shevalarining hududiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shevalarning o'zaro farqlari, ularning adabiy til bilan munosabati hamda umumxalq tili boyligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'zbek dialektologiyasining nazariy masalalari va shevalarning til tarixi nuqtayi nazaridan ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** O'zbek tili, sheva, hududiy farqlanish, adabiy til, leksik xususiyat, o'rganish usullari, tasnif.

**Annotation.** This article analyzes the territorial classification and unique characteristics of Uzbek dialects. The mutual differences between dialects, their relationship with the literary language, and their role in enriching the international language's vocabulary are studied. Furthermore, the article highlights the theoretical issues of Uzbek dialectology and the significance of dialects from a historical-linguistic perspective.

**Keywords.** Uzbek language, dialect, territorial differentiation, literary language, lexical feature, research methods, classification.

**Аннотация.** В данной статье анализируются территориальная классификация и своеобразные особенности узбекских диалектов. Исследуются взаимные различия диалектов, их связь с литературным языком, а также их роль в обогащении словарного запаса общенародного языка. Кроме того, в статье освещаются теоретические вопросы узбекской диалектологии и значение диалектов с историко-лингвистической точки зрения.

**Ключевые слова.** узбекский язык, диалект, территориальная дифференциация, литературный язык, лексическая особенность, методы исследования, классификация.

**Kirish.** Til — shunchaki aloqa vositasi emas, u millatning genetik kodi va o'tmishidan kelajagiga qarab otilgan intellektual ko'prikdir. Bugungi globallashuv sharoitida o'zbek tilining o'ziga xosligini, uning ichki xazinasi bo'lgan sheva va lahjalarni o'rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada biz o'zbek tili dialektologiyasining shunchaki tasnifini emas, balki jonli tilning adabiy norma bilan to'qnashuvi, boyishi va tarixiy evrilishlarini tahlil qilamiz. Shevalarimiz — ona tilimizning bitmas-tuganmas boylik manbai va uning omon qolish kafolatidir.

**Asosiy qism.** O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialect, lahja degan terminlar qo'llaniladiki, ularning lug'aviy va terminalogik ma'nolarini bilish albatta zarur.

fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi [1]. U mahalliy dialektning fonetik, leksik grammatik umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi.

Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi, ammo adabiy tildan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) *adabiy til* millatning barcha vakillari uchun umumiydir *dialekt* va *shevalar* esa millat tarkibidagi etnik guruhlarining har biri uchun alohida-alohida bo‘ladi, bir-biridan fonetik, leksik va grammatik farqlanadi;

b) adabiy tilning *yozma shakli* mavjud: u ma‘lum me‘yorlarga bo‘ysundirilgan yozuv sistemasiga (adabiy-orfografik yozuvga) asoslanadi. Dialekt va shevalar uchun esa *alohida adabiy-orfografik yozuv yo‘q*.

d) *adabiy tilning* qo‘llanishi *hududiy jihatdan chegaralanmaydi*, dialekt va shevalarning qo‘llanishi esa *bu jihatdan chegaralangandir*.

e) *adabiy tilda davlat ishlari*- xalq ta‘limini , matbuot radio-televideniya ,ilm-fan, ma‘muriy-idoraviy hujjatlashtirish ishlari olib boriladi; qonun, farmon va qarorlar shu tilda e‘lon qilinadi. *Dialekt va shevalar* esa bu funksiyada qo‘llanmaydi [2].

Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risida xabar beradi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida *qarluq, chigir, uyg‘ur, qipchoq, urug‘lari, qangli, qatag‘on urug‘* va *qabilalari* birlashmalarning tarixiy taraqqiyoti katta rol o‘ynagan.

O‘zbek tilining dialektal o‘ziga xosligida qadimgi urug‘ va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ishtimoiy hayot tarzi, territorial mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylikni saqlab qolgan holda, boshqa territoriyada yashovchi o‘zbeklar tilidan ko‘pgina xususiyatlari bilan farqlanishida olib kelgan, bu esa shevaning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan. Sheva va dialekt xususiyatlarning tobora qat‘iylashishiga aholi punktlarining bir -biridan uzoq joylashishi muhim rol o‘ynagan.

S. Nurullayevaning tadqiqotida Turkiston shahri va uning atrof qishloqlari, jumladan, Iqon shevasi o‘tmishda o‘zbek tili turkiy mavqeini, nomlari ham o‘rganiladi. Tadqiqotda Iqon shevasining o‘ziga xos leksikasi haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Lekin keltirilgan ayrim misollarda fonetik, grammatik, semantik kamchilik uchraydi.

Z. Xolmedovanning nomzodlik ishida ham Iqon shevasi va uning shevasi leksikasidagi ba‘zi mushtarakliklar ko‘rsatilgan. Ammo tadqiqotchi o‘zbek xalq shevalari lug‘ati materialiga asoslanib keltirilgan ba‘zi namunalarda, yuqorida qayd etilganidek, so‘zlarning shakli yoki ma‘nosini noto‘g‘ri talqin qiladi. J. Musayevning "O‘zbek shevalarining lisoniy tadqiqi" nomli monografiyasida o‘zbek shevalarida "milliy realiyalar" haqidagi nazariy fikrlarni dalillashda "olaning lisoniy dialektal manzarasi"ni yoritishda, Iqon shevasining leksik boyligidan unumli va o‘rinli foydalangan [3].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek shevalarining hududiy differentsatsiyasi tilning tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayoni mahsulidir. Shevalar nafaqat tilshunoslikning dialektologiya va etimologiya sohalari uchun fundamental manba, balki milliy madaniyat, etnografiya va xalq tarixini tadqiq etishda muhim obyekt sanaladi. Shu bois, globallashuv davrida shevalarning o‘ziga xosligini ilmiy asosda o‘rganish, ulardagi arxaik qatlamlarni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Jamolxonov, H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
3. To‘ychiboyev, B., Hasanov, B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.